XALQ DEPUTATLARI QUVA TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2024 - yil 15 - fevral VI-59-19-11-156-K/24 Quva tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024 yil 30 yanvardagi “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-son Qarori ijrosini tumanda ta’minlash to‘g‘risida

Aholini tashabbusli budjet jarayoniga keng jalb qilishni yanada kuchaytirish, budjet mablag‘larining bir qismini jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil davom ettirish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024 yil 30 yanvardagi “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-son Qarori bandlarini tumandagi ijrosini sifatli ta’minlash maqsadida xalq deputatlari Quva tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Tumandagi barcha mas’ullarga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024 yil 30 yanvardagi “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-son Qarori bandlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ta’minlansin.

2. “Quva tumanida tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Shu munosabat bilan xalq deputatlari Quva tuman Kengashining 2022 yil 10 fevraldagi “Mahalliy budjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi VI-35-21-11-156-K/22-son Qarori o‘z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.

3. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot

va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Siddiqov), nazorat qilish xalq deputatlari Quva tumani Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiya raisi (B.Abduraximov)lar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **X.Umarov**

Xalq deputatlari Quva tuman
Kengashining
2024-yil 15-fevraldagi
VI-59-19-11-156-K/24-son qaroriga
1-ilova

Quva tumanida tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar.

1. Mazkur Nizom tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish, shuningdek, “Ochiq budjet” portali orqali jamoatchilik fikri asosida loyihalarni shakllantirish, moliyalashtirish hamda amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

-**tashabbusli budjet jarayoni -** “Ochiq budjet” axborot portalida (keyingi o‘rinlarda - Portal) jamoatchilik fikri asosida loyihalarni shakllantirish, ularni saralash, ovoz berish yo’li orqali g‘olib loyihalarni aniqlash hamda budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishni o‘z ichiga olgan jarayon;

-**jamoatchilik fikri asosida shakllangan loyiha** (keyingi o‘rinlarda - loyiha) ushbu Nizomda belgilangan tartibda fuqarolar tomonidan mahalladagi mavjud ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga qaratilgan taklif;

-**g‘olib loyiha -** ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra to‘plangan ovozlar soni asosida Portal tomonidan avtomatik tarzda tanlab olingan loyiha;

-**fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi -** tuman hokimligida budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari shaklida ochilgan shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i;

-**loyihalarni amalga oshirish xronologiyasi -** tashabbusli budjet jarayoni doirasida g‘olib deb topilgan loyihalarni moliyalashtirishning barcha bosqichlarini Portal orqali bevosita fuqarolarga kuzatib borish imkoniyatini beruvchi maxsus bo‘lim;

-**ishchi komissiya** - loyihalarni baholash, saralab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha tuman hokimligi huzurida tashkil etilgan komissiya;

-**tashabbuskor** - Portal orqali g‘olib deb topilgan loyiha muallifi;

-**onlayn murojaat -** Portalda fuqarolar tomonidan savol, shikoyat, taklif yoki qonun buzilishi holatlari yuzasidan xabar qoldirish imkoniyatini beruvchi maxsus sahifa;

-**favqulodda xabar -** Portalda tashabbuskor tomonidan g‘olib loyihani amalga oshirishda yuzaga kelgan favqulodda holat yuzasidan qoldirilgan xabar.

Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish ushbu Nizomning 1-ilovasi “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazisii sxemasi”ga muvofiq amalga oshiriladi.

Tashabbusli budjet jarayonlarini tashkillashtirish, o‘tkazish hamda tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyo’l va moliya vazirligi vakolatli organ hisoblanadi.

2. Loyihalarni baholash, saralab olish hamda ijrosini monitoring qilish ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq “Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash,

tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha ishchi komissiyaning namunaviy tarkibi” tomonidan amalga oshiriladi.

3. Tuman iqtisodiyo’l va moliya bo‘limi Ishchi komissiyaning - ishchi organi (keyingi o‘rinlarda - ishchi organ) hisoblanadi. Ishchi organ portalda o‘ziga biriktirilgan vakolatlardan elektron raqamli kalit orqali foydalanadi.

2-bob. Tashabbusli budjet jarayonlarini moliyalashtirish.

4. Quyidagilar tashabbusli budjet jarayonini moliyalashtirishga yo’naltiriladi:

-tuman budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 5 foizi;

-tuman budjeti qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizi, (viloyat budjeti qo‘shimcha mablag‘larining 30 foizi);

-tuman budjetida ichki yo’llarni ta’mirlash uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar;

-vazirlik va idoralarning davr uchun tasdiqlangan rivojlantirish dasturlari doirasida ko‘zda tutilgan mablag‘lar.

5. Mablag‘larni tashabbusli budjet jarayonini moliyalashtirishga yo’naltirish uchun tuman hokimligida budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari shaklidagi Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi shaxsiy g‘azna hisob-varag‘i (keyingi o‘rinlarda -- Jamg‘arma) ochiladi.
6. Mablag‘larni Jamg‘armaga yo’naltirishda:

Tuman hokimligi:

-har yili tuman budjet parametrlarini tasdiqlashda Jamg‘armaga yo’naltiriladigan mablag‘lar miqdorini belgilashga;

-har chorak (yil) yakunlari bo‘yicha shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning kamida 30 foiz qismini Jamg‘armaga yo’naltirishga doir takliflarni tasdiqlash uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritadi, (viloyat hokimligi mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, har chorak (yil) yakunlari bo‘yicha shakllangan qo‘shimcha mablag‘laming 30 foiz qismini teng taqsimlagan holda tuman jamg‘armalariga yo’naltirish bo‘yicha takliflarni tasdiqlash uchun tegishlicha xalq deputatlari viloyat Kengashiga kiritadi).

Viloyat budjetidan tuman budjetiga har chorak (yil) yakunlari bo‘yicha shakllangan qo‘shimcha mablag‘larni taqsimlash masalasi chorak (yil) yakunlariga ko‘ra keyingi oyning 25-sanasiga qadar xalq deputatlari tuman Kengashida muhokama qilinishi lozim.

7. Tashabbusli budjet jarayonlarini moliyalashtirish uchun yo’naltiriladigan mablag‘lar Jamg‘armaga:

-tuman budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatining kamida 5 foizi miqdorida ko‘zda tutilgan mablag‘larning teng yarmi - birinchi mavsum uchun yanvar oyida, qolgan qismi ikkinchi mavsum uchun may oyida (mavsum boshlanishidan kamida o‘n kun oldin);

-tuman budjetida ichki uo‘llarni ta’mirlash uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar yanvar oyida, (viloyatdan tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobiga ajratiladigan mablag‘lar- xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori qabul qilinganidan so‘ng uch ish kunida) o‘tkaziladi.

Vazirlik va idoralarning tasdiqlangan rivojlantirish dasturlari doirasida ko‘zda tutilgan mablag‘lar aprel oyida loyihalarni moliyalashtirish uchun ochilgan hisob raqamlariga o‘tkazib beriladi.

Tashabbusli budjet jarayoni uchun normativ-huquqiy hujjat asosida qo‘shimcha mablag‘lar ajratilganda - bir hafta muddatda (agar hujjatda boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa) qo‘shimcha tarzda

g‘olib deb e’lon qilingan loyihalar uchun ochilgan hisob raqamlariga o‘tkaziladi.

8. Agar mahalliy budjetlarning qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan Jamg‘armaga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar chorak (yil) hisobidan o‘tkazilmasa, kelgusi chorak (yil) yakunlari bo‘yicha shakllangan qo‘shimcha mablag‘lar hisobidan qoplab berilishi shart.
9. Jamg‘arma mablag‘lari faqat g‘olib loyihalar mazmunida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish hamda shu bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirish (loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertiza xulosalarini olish va boshqalar) xarajatlari uchun yo’naltiriladi. Mazkur mablag‘larni boshqa maqsadlarga yo’naltirish taqiqlanadi.
10. G‘olib loyihada nazarda tutilgan tadbirlar to‘liq amalga oshirilganidan so‘ng ushbu loyiha uchun ochilgan hisob raqamidagi qoldiq mablag‘lar tejalgan mablag‘ hisoblanadi.

Tejalgan mablag‘lar hisobidan qo‘shimcha tadbirlarni amalga oshirishga yo’l qo‘yilmaydi hamda buyurtmachi tomonidan o‘n ish kuni ichida ushbu mablag‘lar tuman Jamg‘armasiga o‘tkaziladi.

11. Tadbirlarni amalga oshirish ishlari moliya yilida yakunlanmay qolsa, shuningdek, bajarilgan ishlar uchun mablag‘lar pudratchilarga to‘liq o‘tkazib berilmasa, g‘azna hisob-varag‘idagi mablag‘lar Jamg‘armaga o‘tkazilmaydi hamda kelgusi yil davomida belgilangan tartibda pudratchiga to‘lab beriladi.

Agar yil yakunlariga ko‘ra rasmiylashtirilgan shartnomaga muvofiq tadbirlar amalga oshirilmagan yoki qisman bajarilgan bo‘lsa, shartnomada belgilangan tadbirlarni hamda to‘lovlarni kelgusi yilda amalga oshirishni nazarda tutadigan qo‘shimcha kelishuv rasmiylashtiriladi.

3-bob. Jamoatchilik fikri asosida loyihalarni shakllantirish, saralab olish va g‘oliblarni aniqlash.

12. Tashabbusli budjet jarayoni har yili ikki mavsum doirasida: birinchi mavsum fevral-mart oylari, ikkinchi mavsum - iyun-iyul oylari davomida o‘tkaziladi.

Zarur hollarda vakolatli organ keng jamoatchilikni xabardor qilgan holda mavsumlarni o‘tkazish muddatiga aniqlik kiritishi mumkin.

13. Tashabbusli budjet jarayonlari “Ochiq budjet” axborot portali (openbudget.uz) orqali o‘tkaziladi. Bunda Portalning veb-sahifasi va mobil ilovasi teng kuchli hisoblanadi.
14. Ishchi organ mavsum boshlanishidan kamida yigirma kun avval rasmiy veb-sayt va ommaviy axborot vositalari orqali:

-mavsumni o‘tkazish muddatlari;

-mavsum uchun yo’naltirilayotgan mablag‘lar miqdori;

-loyihalarni saralab olish mezonlari haqida keng jamoatchilikni xabardor qiladi.

15. Mavsum davomiyligi 20 kundan iborat bo‘lgan quyidagi uchta bosqichda o‘tkaziladi:

-fuqarolar tomonidan loyihalarni shakllantirish;

-ishchi komissiya tomonidan loyihalarni saralab olish;

-saralashdan o‘tgan loyihalarga ovoz berish.

16. Fuqarolar Portaldan ro‘yxatdan o‘tgan holda 20 kun davomida o‘zlarining mahalla yoki tumandagi yoxud respublikaning istalgan hududidagi mavjud muammolarini bartaraf etish bo‘yicha loyihalarni joylashtiradi.
17. Har bir fuqaro bir mavsumda faqat bitta loyihani ilgari surish huquqiga ega.
18. Olis hamda Internet xizmati to‘liq yetib bormagan hududlarda fuqarolarga imkoniyat yaratish

maqsadida tuman hokimligi tomonidan mahalla loyihalarni shakllantirishga ko‘maklashuvchi tashabbuskorlar burchaklari tashkil etiladi.

19. Loyihalarni shakllantirishda quyidagi talablar qo‘yiladi:

-loyiha mazmuni, jumladan, amalga oshiriladigan ish turlari yoki xarid qilinadigan tovar va xizmatlar nomi va soni aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi (bunda jihozlar ro‘yxati elektron tarzda shakllantiriladi);

-loyihani amalga oshirish aniq manzili (mahalla va ushbu mahalladagi ko‘chalar nomi) ko‘satilgan bo‘lishi;

-loyihada yagona ijtimoiy muammo aks ettirilgan bo‘lishi (loyiha tarkibiga bir necha manzildagi yoki turli xil obyektlar bo‘yicha tadbirlarni kiritilishiga ruxsat berilmaydi);

-obyektning amaldagi holatini tasvirlovchi kamida 3 ta fotosurat ilova qilinishi.

Bunda fuqarolarga loyihani amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha hujjatlarni (loyiha hujjatlari, vakolatli organ xulosalari kabi hujjatlar) ilova qilish imkoniyati beriladi.

20. Loyihalarni amalga oshirish turiga ko‘ra qurilish-ta’mirlash yoki jihozlash uo‘nalishlari bo‘yicha ilgari surilishi mumkin. Bunda jihozlash bo‘yicha xarid qilinishi ruxsat etilgan tovar (xizmat)lar ro‘yxati vakolatli organ tomonidan vazirliklar bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Bir loyiha tarkibida ikki xil turdagi tadbirlar kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

21. Ilgari surilgan loyihalar Ishchi komissiya tomonidan quyidagi mezonlar asosida tanlab olinadi:

-loyihada aks etgan muammo (tadbir) tuman hududiga bo‘lishi;

-jamoaviy muammolarni hal etishga qaratilganligi (yo’llarni ta’mirlash, xiyobonlar va bolalar maydonchalarini barpo etish, ijtimoiy soha obyektlarini ta’mirlash yoki jihozlash, ekologiyani yaxshilash, ichimlik va oqova suv ta’minotini yaxshilash, ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish (ta’mirlash) va shu kabilar);

-jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar idoraviy yoki shaxsiy xususiyatga ega bo‘lmasligi (shaxsiy avtomashina, turar joy, bino-inshootlarni xarid qilish, ma’muriy binolarni ta’mirlash);

-tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlamasligi hamda loyihani amalga oshirish natijasida pullik xizmat asosida foydalanilmasligi;

-budjet tashkilotini saqlab turish bilan bog‘liq xarajatlarni o‘zida aks ettirmasligi (ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, kommunal, aloqa va Internet xizmati uchun to‘lovlar, shuningdek, kanstovar va boshqa tez eskiruvchi moddiy qiymatliklar);

-mahalliy davlat hokimiyati, davlat organlarining binolarini qurish, ta’mirlash va jihozlash hamda boshqa ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lmasligi;

-boshqa dastur yoki Hukumat topshiriqlari asosida moliyalashtirish manbasi aniq belgilab berilgan obyekt yoki ishlarni o‘z ichiga olmasligi;

-loyihani amalga oshirishning umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 ming barobaridan oshmasligi lozim.

Bunda bir xil mazmundagi bir necha loyihalar ilgari surilgan bo‘lsa, ulardan ma’lumoti to‘liq ko‘rsatilgan dastlabki kiritilgan loyiha qabul qilinadi.

22. Tashabbusli budjet jarayonlari doirasida Hukumat topshirig‘i yoki ko‘rsatmalari ijrosini ta’minlash maqsadida manzilli ravishda loyihalarning shakllantirilishiga yo’l qo‘yilmaydi.
23. Ishchi komissiya loyihalarni saralash bosqichi davomida ushbu Nizomning 23-bandida ko‘rsatilgan

mezonlarga muvofiqligi hamda tadbirlar amalga oshirilishi imkoniyatlarini o‘rganadi. Bunda kelib tushgan loyihalar Ishchi komissiya tomonidan Portalga kelib tushgan kundan boshlab 10 kun ichida tegishliligi bo‘yicha buyurtmachilarga yuboriladi.

24. Loyihalarni ko‘rib chiqish va amalga oshirish bo‘yicha buyurtmachi tashkilotlar (keyingi o‘rinlarda - buyurtmachi) mazkur Namunaviy nizomning 3-ilovasi “Tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko‘ra g‘olib bo‘lgan loyihalarni ko‘rib chiqish va amalga oshirish bo‘yicha buyurtmachi tashkilotlar ro‘yxati” ga muvofiq belgilanadi.
25. Buyurtmachilar tomonidan loyihalar qabul qilingan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida qonun hujjatlarida belgilangan mezonlarga muvofiqligi yuzasidan loyihalarni ko‘rib chiqadi hamda Ishchi komissiyaga loyihalarni qabul qilish (loyihaning qiyrnati va amalga oshirish uchun talab etiladigan qo‘shimcha hujjatlar ro‘yxatini ilova qilgan holda) yoki asoslantirilgan holda rad etish yuzasidan xulosa taqdim etadi.
26. Loyihalarni amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag‘ning dastlabki qiyrnati tegishliligiga ko‘ra buyurtmachilar xulosasi asosida Ishchi organ tomonidan Portalga kiritiladi.
27. Tarmoq tashkilotlarining taqdim etgan xulosasiga asosan Ishchi komissiya loyihalarni ovoz berish bosqichiga o‘tkazish yoki rad etish yuzasidan qaror qabul qiladi.

Mazkur qaror asosida Ishchi organ Portalda rad etiladigan va ovoz berishga o‘tkaziladigan loyihalar ro‘yxatini shakllantiradi hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi mudiri ERI kalit orqali ushbu ro‘yxatni tasdiqlaydi.

28. Ishchi komissiya tomonidan loyihalarni asossiz ravishda rad etishga yo’l qo‘yilmaydi.

Loyihalar asossiz rad etilganda fuqarolarga holat yuzasidan Portal orqali xabar yuborish imkoniyati yaratiladi.

29. Vakolatli organ kelib tushgan murojaatlarni o‘rganib chiqish jarayonida loyihalar haqiqatda asossiz ravishda rad etilgan deb topilsa, vakolatli organ tomonidan ushbu loyihalar ovoz berish bosqichiga o‘tkaziladi.
30. Agar bir tumanda mavsum doirasida ikki yoki undan ortiq asossiz ravishda rad etish holati yuzasidan xabar kelib tushsa, ushbu tuman Ishchi organining mazkur mavsum uchun loyihalarni saralash jarayonidagi vakolatlari cheklanadi hamda hudud bo‘yicha barcha loyihalar vakolatli organ tomonidan qaytadan saralashdan o‘tkaziladi.

Bunda agar tuman Ishchi komissiyasi loyihalarni rad etish uchun asoslantiruvchi hujjatlarni taqdim etmasa, barcha loyihalar ovoz berish bosqichiga o‘tkazilishi mumkin.

31. Ishchi komissiya tomonidan rad etilgan takliflar bo‘yicha taklif bergan shaxsning shaxsiy kabinetiga rad etishning asoslangan sabablari to‘g‘risida xabarnoma yuboriladi.
32. Saralash bosqichi yakunlariga ko‘ra Portalda ovoz berish jarayonlari o‘tkaziladi. Bunda ovoz berish bosqichi boshlangunga qadar kelib tushgan barcha loyihalar saralashdan o‘tkazilishiga shaxsan Ishchi komissiya mas’ul hisoblanadi.
33. Ovoz berish bosqichida fuqarolar bir mavsum doirasida bitta loyihaga ovoz berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bunda ovoz berishda fuqaroning shaxsiga aniqlik kiritilib, Portalda ovoz beruvchilar ro‘yxati shakllantirilib boriladi hamda takroran ovoz berishga yo’l qo‘yilmaydi.

34. Fuqarolarga qulayliklar yaratish maqsadida ovoz berish SMS xizmati orqali Portal, mobil ilova yoki ijtimoiy tarmoqlarda ishga tushirilgan rasmiy botlar orqali amalga oshirilishi mumkin.
35. Har bir tumanda loyihalar g‘olib deb topilishi uchun 10 tadan kam bo‘lmagan ovozlarga ega bo‘lishi lozim.

36. Ovoz berish bosqichi yakunlariga koʻra:

-tuman boʻyicha loyihalar toʻplangan ovozlar boʻyicha yuqoridan pastga saralanadi;

-ovoz berish bosqichi yakunlangan kun holatiga Jamgʻarmadagi mavjud mablagʻlar Portalda qayd etiladi;

-eng koʻp ovoz olgan loyihalar mavsum uchun nazarda tutilgan mablagʻlar doirasida Portal tomonidan avtomatik tarzda gʻolib deb topiladi.

Bunda gʻolib loyihalarni aniqlashda ovoz beruvchilar ma'lumotiga aniqlik kiritish uchun qoʻshimcha vaqt talab etilishi natijasida gʻolib loyihalar roʻyxatini e'lon qilish ma'lum bir muddat talab etishi mumkin.

37. Tuman boʻyicha gʻolib loyihalar bir vaqtning oʻzida Portal orqali e'lon qilinadi. Loyiha tashabbuskorlariga gʻolib boʻlganligi yuzasidan SMS xabar yuboriladi.
38. Gʻoliblar aniqlanganidan soʻng Jamgʻarmada shakllangan qoldiq mablagʻlar gʻolib deb topilgan loyihalarning yakuniy qiymatiga aniqlik kiritilishi munosabati bilan qoʻshimcha talab etiladigan farqni qoplashga yoki kelgusida oʻtkaziladigan tashabbusli budjet jarayonlariga yo'naltiriladi.
39. Gʻolib deb topilgan loyihalarni amalga oshirishda yuzaga kelgan texnik muammolar yoki ushbu loyihani amalga oshirish boʻyicha boshqa manbalar hisobidan mablagʻlar ajratilganida mazkur loyihalar gʻoliblar roʻyxatidan chiqariladi.

Bunda gʻoliblar roʻyxatidan chiqarish uchun Ishchi komissiya tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashining qarori rasmiylashtirilib, Portalga joylashtiriladi.

40. Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan gʻolib loyihalarning asossiz tarzda rad etilishiga yo'l qoʻyilmaydi. Gʻolib loyihalar toʻliq amalga oshirilmagunga qadar Portaldan nazoratdan olinmaydi.
41. Asoslangan holda gʻoliblar roʻyxatidan chiqarilgan loyihalar uchun ajratilgan mablagʻlar Jamgʻarmaga qayta tiklanadi.

Vakolatli organ tomonidan ushbu mablagʻlar doirasida (kelgusi mavsum boshlangunga qadar) tumanda eng koʻp ovoz toʻplab gʻolib boʻlmagan navbatdagi loyiha(lar) gʻolib deb e'lon qilinishi mumkin.

42. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmon yoki qarorlari asosida qoʻshimcha gʻolib deb e'on qilingan loyihalar uchun alohida shaxsiy gʻazna hisobvaraqlari ochilib, ajratilgan mablagʻlar ushbu hisob-varaqlarga yo'naltiriladi. Ushbu loyihalar Portalda shartli gʻolib sifatida qayd etilib, umumiy gʻolib loyihalar roʻyxatiga kiritiladi.

4-bob. Gʻolib loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirish.

43. Jamgʻarma mablagʻlari hisobidan gʻolib loyihalarni moliyalashtirish xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.
44. Gʻolib loyihalar e'lon qilingan kundan boshlab 7 kun muddatda mazkur loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan Ishchi komissiya tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga qaror loyihasi kiritiladi.
45. Qaror loyihasiga gʻolib deb topilgan loyihalarni moliyalashtirish 4-ilovadagi namunaga muvofiq tuziladi.

Bunda jihozlash loyihalari uchun tuman boʻyicha oʻtkazilgan tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga koʻra gʻolib boʻlgan ID loyihani amalga oshirish boʻyicha xarid qilinadigan tovar (xizmat)lar reyestri mazkur nizomning 5-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi, shu oʻrinda xarid qilinadigan tovar (xizmatlar) reyestrida (keyingi oʻrinlarda -- Reestr) koʻzda tutilgan xaridlarning jami summasi Manzilli

ro‘yxatda loyihani moliyalashtirish uchun ko‘zda tutilgan mablag‘dan ortib ketishiga yo’l qo‘yilmaydi.

46. G‘olib loyiha doirasida faqat tashabbuskor tomonidan loyiha mazmunida ko‘rsatib o‘tilgan tadbirlar amalga oshiriladi. Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori bilan g‘olib deb topilgan loyiha mazmunini Manzilli ro‘yxatda o‘zgartirishga yoki loyihada ko‘zda tutilmagan tadbirlar kiritilishiga ruxsat etilmaydi.
47. Manzilli ro‘yxat belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi, jumladan, buyurtmachi tashkilotlar to‘g‘ri tanlanishi, Reyestr to‘g‘ri shakllantirilishi, xarid qilish tartib-taomili turi va loyihani amalga oshirish aniq manzili kabi ma’lumotlar to‘g‘ri ko‘rsatilishda Ishchi komissiya mas’ul hisoblanadi.
48. G‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirish uchun yer va boshqa resurslar ajratilishi, shuningdek, soha inspeksiyalarining ekspertiza xulosalari talab etilgan hollarda ushbu resurslarni ajratish bo‘yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega tashkilotlarga Manzilli ro‘yxat tasdiqlangandan so‘ng 3 ish kunida tuman hokimligi tomonidan so‘rov yuboriladi.
49. Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori bilan Manzilli ro‘yxat tasdiqlangandan so‘ng tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi tomonidan g‘olib deb topilgan loyihalarni moliyalashtirish maqsadida buyurtmachi tashkilotlarga har bir loyiha uchun alohida Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari ochiladi.

Agar g‘olib loyihani amalga oshirishda respublika yoki viloyat darajasidagi tashkilot buyurtmachi etib tayinlansa - ushbu tashkilotga tuman darajasida Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasida shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i ochiladi.

50. Ochilgan shaxsiy g‘azna hisob-varaqlariga 3 ish kuni ichida tuman hokimligi tomonidan g‘olib deb topilgan loyihalar uchun Manzilli ro‘yxatda nazarda tutilgan mablag‘lar o‘tkazib beriladi.
51. Manzilli ro‘yxatda nazarda tutilgan mablag‘lar shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga o‘tkazib berilgandan so‘ng buyurtmachi tashkilotlar 3 ish kunida tovar-moddiy boyliklar (ishlar va xizmatlar) xarid qilish uchun ta’minotchi korxonalarni aniqlash, qurilish-ta’mirlash bilan bog‘liq tadbirlar bo‘yicha loyihachi korxonalarni aniqlash bo‘yicha davlat xaridlari elektron tizimiga e’lon joylashtiradi.
52. Qurilish va ta’mirlash bilan bog‘liq tadbirlar yuzasidan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ekspertiza xulosasi olingan kundan boshlab 1 ish kunida buyurtmachi tashkilotlar Manzilli ro‘yxatda ko‘rsatilgan xarid qilish tartib-taomili bo‘yicha pudratchi korxonalarni aniqlash choralarini ko‘radi.

Bunda ekspertizadan o‘tkazilgan loyiha-smeta hujjatlari asosida g‘olib loyihaning yakuniy qiymatiga aniqlik kiritiladi.

53. Agar loyihaning dastlabki qiymatiga nisbatan yakuniy qiyrnati ko‘proqni tashkil etsa, loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan qo‘shimcha mablag‘ xalq deputatlari tuman Kengashining qarori asosida Jamg‘armadagi mavjud yoki kelgusida kelib tushadigan mablag‘lar hisobidan qoplab beriladi.

G‘olib deb topilgan loyihaning dastlabki qiymatidan kelib chiqib, tadbir doirasida amalga oshiriladigan ishlar (tovar va xizmatlar) hajmini kamaytirishga yo’l qo‘yilmaydi.

5-bob. Jihozlash bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirish.

Jihozlash bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishda buyurtmachi tashkilot davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq moddiy qiymatliklar (xizmatlar)ni yetkazib beruvchi yoki pudratchilarni aniqlash:

-elektron do‘kon orqali;

-boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion orqali;

-eng yaxshi takliflarni tanlash orqali;

-qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish orqali davlat xaridlarini amalga oshiradi.

54. Loyihalar uchun mablag‘lar o‘tkazib berilgan kundan boshlab qoida tariqasida to‘rt oyda tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) xarid qilish tadbirlari to‘liq yakunlanishi lozim. Loyihalarni to‘liq amalga oshirilishiga buyurtmachi tashkilotlar mas’ul hisoblanadi.
55. Ajratilgan mablag‘lar faqat Manzilli ro‘yxatga ilova qilingan Reyestrda nazarda tutilgan tovar-moddiy qiymatliklar (xizmatlar)ni xarid qilish uchun sarflanadi.

Bunda Reyestrga kiritilgan tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) turini o‘zgartirish yoki miqdorini oshirishga uo‘l qo‘yilmaydi.

56. Xarid qilinishi nazarda tutilgan tovar-moddiy qiymatliklarni haqiqiy bozor narxi g‘olib deb topilgan loyiha uchun nazarda tutilgan mablag‘dan ortiq bo‘lsa, ushbu holatda Reyestrning jami summasiga o‘zgartirish kiritilishi mumkin. Bunda qo‘shimcha talab etiladigan mablag‘lar Jamg‘arma hisobidan ajratilishi uchun Manzilli ro‘yxatga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashining qarori qabul qilinishi lozim.
57. Xarid qilinishi nazarda tutilgan tovar yoki xizmat turi bo‘yicha ichki bozorda takliflar mavjud bo‘lmagan holda mazkur tovar (xizmatlar)ni turiga o‘zgartirish kiritilishi mumkin. Bunda xaridlar vakolatli organ bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.
58. Xarid qilingan tovar-moddiy qiymatliklar buyurtmachi tashkilot tomonidan belgilangan tartibda tovar va xizmatlar yetkazib berilgan kundan boshlab balansga kirim qiladi hamda buxgalteriya hisobotida aks ettiriladi.
59. Balansda saqlovchi tashkilot xarid qilingan tovar-moddiy qiymatliklarni saqlab turish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish yuzasidan kelgusi moliya yili uchun budjet so‘rovida mablag‘lar ko‘zda tutilishini ta’minlaydi.
60. Umumfoydalanishda bo‘lgan resurslar bilan ta’minlash vositalari (transformator, quvurlar, uzellar va boshqa resurslarni yetkazib berishda qo‘llaniladigan vositalar)dan foydalanishda buyurtmachi tashkilot mazkur vositalarni o‘z balansiga kirim qiladi hamda tomonlar o‘rtasida kelishuv asosida ekspluatatsiya korxonalariga foydalanish uchun beradi.
61. Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan avtotransport vositalari xarid qilinganda xarid qilingan transportlarga vakolatli organ tomonidan taqdim etilgan shablon bo‘yicha maxsus belgi-stikerlar joylashtiriladi. Maxsus belgilari o‘rnatilmagan transport vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.

6-bob. Qurilish-ta’mirlash loyihalari bo‘yicha
tadbirlarni amalga oshirish.

62. Mavjud bino va inshootlarni joriy yoki kapital ta’mirlash (keyingi o‘rinlarda-ta’mirlash) hamda bino va inshootlarni qurish bo‘yicha tadbirlar buyurtmachi tashkilot tomonidan “Shaffof-qurilish” axborot tizimi orqali tender tanlovlari asosida amalga oshiriladi.
63. Loyihalar uchun mablag‘lar o‘tkazib berilgan kundan boshlab qoida tariqasida besh oyda ta’mirlash ishlarini amalga oshirish tadbirlari to‘liq yakunlanishi lozim. Loyihalarni to‘liq amalga oshirilishiga buyurtmachi tashkilotlar mas’ul hisoblanadi.
64. Ajratilgan mablag‘lar faqat Manzilli ro‘yxatda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish va ushbu tadbirlarni bajarish uchun qo‘shimcha talab etiladigan hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlariga sarflanishi mumkin. Bunda Manzilli ro‘yxatda ko‘rsatilgan ta’mirlash ishlari hajmining oshirilishiga yo’l qo‘yilmaydi.
65. Ta’mirlash ishlarining haqiqiy bozor narxi Manzilli ro‘yxatda nazarda tutilgan mablag‘dan ortiq bo‘lsa, ekspertizadan o‘tkazilgan loyiha- smeta hujjatlari hamda buyurtmachi korxonaning xulosasiga asosan loyihaning amalga oshirish yakuniy qiymatiga o‘zgartirish kiritilishi mumkin.

Bunda qo‘shimcha talab etiladigan mablag‘lar Jamg‘arma hisobidan ajratilishi uchun Manzilli ro‘yxatga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashi qarori qabul qilinishi lozim.

66. Buyurtmachi korxona etib yagona buyurtmachi korxonalar belgilanganda ushbu korxona uchun tuman darajasida maxsus g‘azna hisobvaraqlari ochiladi va g‘olib loyihani amalga oshirish uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar maxsus g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazib beriladi.
67. Ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun yagona buyurtmachi korxona va balansda saqlovchi o‘rtasida bitim imzolanadi. Bitimda loyihani amalga oshirish qiymati, amalga oshiriladigan ishlar, qabul qilib olish muddati va boshqa texnik ko‘rsatkichlar aks ettiriladi.
68. Yagona buyurtmachi korxonalar tomonidan loyihani amalga oshirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pudratchi korxonalar bilan shartnomalar rasmiylashtiriladi.
69. Ta’mirlash ishlari yakunlangandan so‘ng ta’mirlangan obyekt amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hujjat va xulosalar bilan birga balansda saqlovchiga topshiriladi.
70. Ta’mirlash ishlari sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishi uchun javobgarlik buyurtmachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.
71. Balansda saqlovchilar sifatida buyurtmachi belgilanib ishlar amalga oshirilganda qurilish ishlari yakunlariga ko‘ra bajarilgan ishlarni belgilangan texnik mezonlarga muvofiqligi yuzasidan mutaxassislar jalb etilgan holda obyektlar qabul qilib olinishi va foydalanishga topshirilishi lozim.
72. Tashabbusli budjet jarayonlari doirasida g‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirishda Yagona buyurtmachi (mintaqaviy yo’llardan foydalanish) korxonalarini saqlash xarajatlari uchun to‘lovlar loyiha qiymatining uch foizidan ortmasligi lozim.

7-bob. Hisobdorlik va ochiqlikni ta’minlash.

73. Ishchi komissiya g‘olib deb topilgan loyihalar ro‘yxatini hokimlikning rasmiy veb-sayti hamda ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qiladi.
74. G‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirishning barcha bosqichlari fuqarolar uchun ochiqligini va ular tomonidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilishini ta’minlash maqsadida Portalda loyihalarni amalga oshirish xronologiyasi yuritib boriladi.
75. Ishchi komissiya loyihalarni amalga oshirish xronologiyasida ma’lumotlar belgilangan muddatlarda kiritilishiga va yangilab borilishiga mas’ul hisoblanadi.
76. Loyihalarni amalga oshirish xronologiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

    -buyurtmachi tashkilot nomi;

    -loyihani moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraq;

    -loyiha uchun ajratilgan mablag‘ miqdori;

    -loyiha-smeta va ekspertiza hujjatlari;

    -“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq o‘tkazilgan tanlovlar;

    -pudratchi korxona to‘g‘risida ma’lumotlar;

    -amalga oshirilgan xarajatlar va rasmiylashtirilgan shartnomalar.

77. Ishchi komissiya har oyning yakunlari bo‘yicha keyingi oyning 10-kuniga qadar loyihalar bajarilishi to‘g‘risidagi ma’lumot, video-rolik va fotolavhalarning ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borilishini ta’minlaydi.
78. Ishchi komissiya tomonidan tashabbusli budjet jarayonlari ijrosi to‘g‘risida har chorak yakunlariga ko‘ra keyingi oyning 25-sanasiga qadar mazkur Nizomning 6- va 7-ilovalarida keltirilgan shakllarda hisobotlar tuman hokimligining rasmiy veb-sayti hamda Portal orqali jamoatchilikka e’lon qilib boriladi.

79. Ishchi komissiya har yili 25-yanvarga qadar o‘tgan yilda o‘tkazilgan tashabbusli budjet jarayonlarini moliyalashtirishga yo’naltirilgan mablag‘lar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritadi.
80. Xalq deputatlari tuman Kengashi har yili 1-fevralga qadar tuman hokimligi tomonidan kiritilgan hisobotni ko‘rib chiqadi.
81. Ishchi komissiya har yili 10-fevralga qadar ajratilgan mablag‘laming sarflanishi yuzasidan tasdiqlangan hisobotni “Ochiq budjet” axborot portaliga joylashtiradi.
82. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi har chorak (yil) yakunlariga ko‘ra “Ochiq budjet” axborot portalida fuqarolarning budjet jarayoniga jalb etilishi hamda tashabbusli budjetlashtirish tadbirlari amalga oshirilishi samaradorligi va natijadorligi yuzasidan tuman hokimligi faoliyatini baholab boradi.
83. Baholash tizimi “0” balldan “100” ballgacha baholanib, tuman tashabbusli budjetlashtirish jarayoni natijalariga ko‘ra “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratiladi.

Bunda quyidagilar baholash mezonlari sifatida qo‘llaniladi:

-Ishchi komissiya tomonidan saralash bosqichi haqqoniy va sifatli o‘tkazilishini baholash - asossiz rad etilgan loyihalar hamda loyihalarni amalga oshirish imkoniyati to‘liq o‘rganilmaslik natijasida g‘olib bo‘lgan loyihalarning keyinchalik rad etilishi holatlari mavjudligi (20 ballgacha);

-fuqarolarning budjet jarayoniga jalb etilishi darajasi - hudud bo‘yicha to‘plangan ovoz sonining mavjud aholi soniga nisbati hamda mavjud mahallalar jalb etilishi darajasi (20 ballgacha);

-Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga mablag‘lar o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilishini baholashda - Jamg‘armaga tuman qo‘shimcha mablag‘larining qismi yo’naltirilishi holatidan kelib chiqib (20 ballgacha);

-Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini baholashda - “Ochiq budjet” axborot portalida Jamoatchilik nazorati bo‘limi orqali loyiha mualliflari tomonidan bajarilgan ishlarni sifati va holatini baholash tizimi orqali (20 ballgacha);

-loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha buyurtmachilar bilan tizimli ishlar tashkil etilganligi darajasi - loyihalar moliyalashtirilishidan kelib chiqib, jami ajratilgan mablag‘ga nisbatan o‘zlashtirilgan mablag‘ga nisbati orqali (20 ballgacha) baholab boriladi (zarur hollarda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan hududlar faolligini baholashda qo‘shimcha mezonlar joriy etilishi mumkin).

84. Har chorak yakunlariga ko‘ra mezonlarga muvofiq tumanning to‘plagan ballaridan kelib chiqib:

-71 balldan 100 ballgacha - “yashil hudud”,

-55 balldan 71 ballgacha - “sariq hudud”,

-55 balldan past bo‘lganda - “qizil hudud” deb topiladi (reyting natijalariga ko‘ra tuman va shaharlar bo‘yicha ko‘rsatkichlari eng past hudud hokimligining tashabbusli budjet jarayoni ijrosi yuzasidan hisoboti yil yakunlariga ko‘ra Oliy Majlis Senatida eshitib borilishi mumkin).

8-bob. Jamoatchilik nazoratining o‘rnatilishi.

85. Portalda g‘olib deb topilgan loyihalar mualliflari tomonidan tadbirlarni amalga oshirishning barcha bosqichlarini kuzatish hamda bajarilgan ishlarni real-vaqt ko‘rinishida baholab borish imkoniyati yaratiladi.
86. Fuqarolar tomonidan loyihani amalga oshirishda boshqa ko‘rinishdagi aralashuvlarga (pudratchi korxonani aniqlash yoki ishlarni ularning o‘zlari tomonidan amalga oshirilishi, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va shu kabilar) yo’l qo‘yilmaydi.
87. Jamoatchilik nazorati doirasida fuqarolar loyihalar ijrosini kuzatib borish orqali qonun buzilishi

holatlari yoki kamchiliklar kuzatilganda shikoyat tarzida Portal orqali “Favqulodda xabar” qoldirishlari mumkin.

Bunda tashabbuskor tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan vajlar nazorat qiluvchi vakolatli organlar tomonidan o‘rganiladi.

88. Loyihalar amalga oshirilgandan so‘ng tashabbuskorlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar Portalda Jamoatchilik nazorati bo‘limi orqali “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarda baholanadi.

“Qizil” toifaga kiritilgan loyihalar bo‘yicha tuman hokimligi tomonidan mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘riladi.

89. “Yashil” deb baholangan loyihalar mahalla raisi (yettiligi) tomonidan qabul qilib olingandan so‘ng loyiha to‘liq yakunlangan statusiga o‘tkaziladi. Bunda mahalla raislariga ERI kalit orqali Portaldan foydalanish imkoniyati yaratiladi.
90. Moliya yili yakunlariga ko‘ra “qizil” deb baholangan loyihalar bo‘yicha ishlarni amalga oshirgan pudratchilar ro‘yxati shakllantirilib, Portal orqali e’lon qilinadi.

Bunda vakolatli organ tomonidan ushbu loyihalar tahlil qilinib, mavjud kamchiliklar bartaraf etilmagan holatlar aniqlansa, ushbu pudratchilarni “Shaffof-qurilish” tizimining Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilishi bo‘yicha idoralarga taklif kiritiladi.

9-bob. Rag‘batlantirish.

91. Yil yakunlariga ko‘ra har yili dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tashabbusli budjet jarayonida faollik ko‘rsatgan fuqarolar, mahalla raislari, ishchi organ yoki pudratchi korxonalardan bir guruhini rag‘batlantirish choralari belgilangan (rag‘batlantiruvchilar soni hamda ularni tanlab olish mezonlari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilanadi).

10-bob. Javobgarlik.

92. Mazkur Nizomda belgilangan me’yorlarga rioya etilmasligi, jumladan, loyihalarni saralab olish, buyurtmachi korxonalar tomonidan xulosalarni belgilangan muddatlarda taqdim etilishi, hujjatlarni rasmiylashtirish, loyihalarni amalga oshirish tartibi va muddatlariga rioya etmaslik, shuningdek, hujjatlarni ochiqligini ta’minlamaslik-budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash tartibini buzish deb baholanadi.
93. Jamg‘arma mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag‘laming ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a’zolari shaxsan javobgar hisoblanadi.
94. Jamg‘arma mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi ustidan nazorat qiluvchi vakolatli organlar tomonidan doimiy nazorat amalga oshiriladi.

11-bob. Yakunlovchi qoidalar.

95. Hududlarda takliflarni saralab olish jarayoni yuzasidan yoki tadbirlarni moliyalashtirish bilan bog‘liq yuzaga kelgan nizolar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ko‘rib chiqiladi.
96. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Quva tumanida tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish
hamda moliyalashtirish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga
1-ilova

TASHABBUSLI BUDJET JARAYONLARINI O‘TKAZISII SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Tuman hokimligi Xalq deputatlari tuman Kengashi	1. Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda - Jamg‘arma) maxsus g‘azna hisobvarag‘iga yo’naltiriladigan mablag‘lar miqdorini belgilash bo‘yicha taklifni tasdiqlash uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritadi. 2. Jamg‘armaga yo’naltiriladigan mablag‘lar miqdorini ko‘rib chiqadi hamda tasdiqlash bo‘yicha qaror qabul qiladi.	Har chorak (yil) yakunlari bo‘yicha keyingi oyning 25-sanasiga qada Takliflar olingan sanadan e’tiboran uch ish kuni ichida
2-bosqich	Ishchi komissiya	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar uchun nazarda tutilgan mablag‘lar miqdori va jarayonni o‘tkazish tartibini “Ochiq budjet” axborot portali va ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka yetkazadi.	Mavsumlar boshlanishidan kamida yigirma kun avval
3-bosqich	Taklif berish istagini bildiruvchilar	Mahalla yoki tumandagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni “Ochiq budjet” axborot portaliga joylashtiradi.	Loyiha kiritish jarayoni boshlangan sanadan boshlab yigirma kun davomida
4-bosqich	Ishchi komissiya	Mezonlarga muvofiqligi hamda tadbirlar amalga oshirilishi imkoniyatlarini o‘rgangan holda takliflarni tanlab oladi va “Ochiq budjet” axborot portaliga joylashtiradi.	Taklif berish tadbirlari yakunlangan sanadan e’tiboran yigirma kun davomida
5-bosqich	Ishchi komissiya	Jamoatchilik tomonidan ovoz berish jarayoni o‘tkaziladi.	Saralash bosqichi yakunlangan sanadan boshlab yigirma kun davomida
6-bosqich	Portal tomonidan	1. Ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra har bir hududda eng ko‘p ovoz to‘plagan takliflar g‘olib deb topiladi va takliflarga berilgan ovozlar sonidan kelib	Ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra

		Ishchi komissiya		chiqib yuqoridan pastga qarab saralab olinadi. 2. Ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra Jamg‘arma mablag‘lardan moliyalashtiriladigan tadbirlar bo‘yicha takliflarni xalq deputatlari tuman Kengashiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi.		Ovoz berish jarayoni yakunlangan sanadan e’tiboran bir hafta muddatda
7-bosqich		Ishchi komissiya		Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan ma’qullangan takliflarni “Ochiq budjet” axborot portalida va boshqa ommaviy axborot vositalarida e’lon qiladi.		Qaror qabul qilingan kundan boshlab 1 kun muddatda
8-bosqich		Ishchi komissiya		Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo’naltirilgan mablag‘lar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritadi.		Har chorak yakunlari bo‘yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar
9-bosqich		Xalq deputatlari tuman Kengashi		Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘larning sarflanishi to‘g‘risidagi hisobotni tasdiqlaydi.		Har chorak yakunlari bo‘yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar
10)-bosqich		Ishchi komissiya		Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘laming sarflanishi yuzasidan tasdiqlangan hisobotni “Ochiq budjet” axborot portaliga joylashtiradi.		Har chorak yakunlari bo‘yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar

Quva tumanida tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish
hamda moliyalashtirish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga
2-ilova

Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha ishchi komissiyaning NAMUNAVIY TARK1BI

T/r	F.LO.	Ish joyi va lavozimi *
1.	X.Umarov	Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi, *ishchi komissiya rahbari.*
2.	R.Nodirov	Xalq deputatlari tuman Kengashining kotibiyati mudiri
3.	M.Raximov	Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati
4.	O.Akbarov	Tuman hokimining kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
5.	A.Yakubov	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
6.	J.Zakirov	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
7.	Z.Odilov	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining Mahallalar va ochiq budjet masalalari bo‘yicha bosh mutaxassisi *(Ishchi organ)*
8.	G.Qodirova	Tuman adliya bo‘limi boshlig‘i
9.	T.Mamasidiqov	Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi vakili
10.	Z.Ashurov	Tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi vakili
11.	A.Isaxonov	O‘zbekiston Mahallalari uyushmasining Quva tumani bo‘limi boshlig‘i
12.	U.Solijonov	Yoshlar ishlari Quva tumani bo‘limi boshlig‘i

13	M.Xolmatova	Tuman hokimining o‘rinbosari, Oila va xotin qizlar bo‘limi boshlig‘i
14.	X.Qurbonov	Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi Quva tuman bo‘limi boshlig‘i
15.	M.Akbarov	Quva tuman Elektr ta’minoti korxonasi boshlig‘i
16.	I.Sharipov	“Farg‘ona suv ta’minoti ” MCHJ Quva tuman bo‘limi boshlig‘i
17.	Z.Sodiqov	“Hududgaz Farg‘ona” GTF Quva tuman gaz bo‘limi boshlig‘i
18.	S.Axmadjonov	Quva tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
19.	N.Mirzamatov	Quva tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
20.	J.Turg‘unov	Quva tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
21.	E.Bekmurodov	Quva tuman Irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i

Izoh:

1. zaruratga ko‘ra tuman hokimligi taklifiga asosan ishchi komissiya tarkibiga boshqa mutaxassislar ham jalb etilishi mumkin;

Komissiya a’zolari soni (kamida 9 kishi) toq bo‘lgan tarkibda tuziladi.

Quva tumanida tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish
hamda moliyalashtirish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga
3-ilova

Tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko‘ra g‘olib bo‘lgan loyihalarni ko‘rib chiqish va amalga oshirish bo‘yicha buyurtmachi tashkilotlar RO‘YXATI

T/r	Loyihaning qisqacha nomi	Balansda saqlovchi	Buyurtmachi korxona	
			Xarid tadbirlari	Qurilish-ta’mirlash tadbirlari-
1.	Avtomobil yo’llarini (piyodalar yo’lakchasi, yo’l o‘tkazgichlar) ta’mirlash bilan bog‘liq tadbirlar	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	x	Mintaqaviy yo’llarga buyurtmachi xizmati
		Umumfoydalanish-dagi yo’llar	x	Mintaqaviy yo’llarga buyurtmachi xizmati
2.	Aholi dam olish maskanlarini ta’mirlash yoki moddiy-texnik bazasini rivojlantirish bilan bog‘liq tadbirlar	Barcha hollarda	Madaniyat bo‘limi	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi
3.	Bolalar maydonchalarini (o‘yingohlarini) barpo etish yoki ta’mirlash bilan bog‘liq tadbirlar	Mahalla fuqarolar yig‘ini	Mahalla fuqarolar yig‘ini	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi
		Ko‘p qavatli uylarga xizmat ko‘rsatish shirkatlari	Hokimlik	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi
4.	Boshqa ta’lim muassasalarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Budjet mablag‘larini taqsimlovchisi	Budjet mablag‘larini taqsimlovchi	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi
5.	Drenaj va ariq (zovur)larni tartibga keltirish bilan bog‘liq tadbirlar	Irrigatsiya bo‘limi	x	“Suvqurilishinvest” DM
6.	Ichimlik suvi va oqova suv tizimini yaxshilash bilan bog‘liq tadbirlar	Suv ta’minoti korxonasi	x	Suv ta’minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi
7.	Ko‘p qavatli uylarni ta’mirlash tadbirlari	Ko‘p qavatli uylarga xizmat ko‘rsatish shirkatlari	x	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi

8.	Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish yoki ta’mirlash (simyog‘och o‘rnatish) tadbirlari	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
9.	Qabristonlarni tartibga keltirish tadbirlari	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
10.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ta’mirlash va rnoddiy-	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Maktabgacha maktab ta’limi bo‘limi	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi

	texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari			
11.	Mahalla guzari (mahallada umumfoydalanishda bodgan boshqa obyektlar)ni ta’mirlash-tiklash bilan bog‘liq xarajatlar	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi
12.	Musiqa tashkilotlarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Musiqa maktablari	Musiqa maktablari	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi
13.	Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish (tuman yoki shahar qiyofasini o‘zgartirish) bilan bog‘liq tadbirlar	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
14.	Oliy o‘quv yurtlarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Oliy o‘quv yurti	Oliy o‘quv yurti	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi
15.	Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Tibbiyot birlashmasi	Tibbiyot birlashmasi	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi
16.	Sport muassasalari yoki sog‘lomlashtirish markazlarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish	Barcha hollarda	Sportni rivojlantirish bo‘limi	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi
17.	Tabiiy gaz ta’minoti bilan bog‘liq loyihalar	Tuman gaz ta’minoti	x	“Hududgazta’minot” AJ
18.	Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Maktabgacha maktab ta’limi bo‘limi	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi
19.	Elektr ta’minoti, transformator o‘rnatish va ta’mirlash tadbirlari	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi
20.	Boshqalar	x	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi

Izoh: Ushbu ro‘yxatda ko‘rsatib o‘tilmagan loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha buyurtmachilarni belgilash xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Quva tumanida tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish

hamda moliyalashtirish tartibi

to‘g‘risidagi nizomga

4-ilova

Tuman bo‘yicha 20_____ -yil -bosqichida g‘olib bo‘lgan loyihalarni Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi hisobidan moliyalashtirish bo‘yicha

MANZILLI RO‘YXAT

T/r	**Tadbirning xos (ID) raqami**	**Obyekt aniq manzili**	**Balansda saqlovchi korxonaning nomi**	**Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar mazmuni**	**Amalga oshirish qiymati**	**Buyurtmachi tashkilot nomi**
Jami						
1.						
2.						
3.						

Quva tumanida tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish
hamda moliyalashtirish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga
5-ilova

Tuman bo‘yicha o‘tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni
yakunlariga ko‘ra g‘olib bo‘lgan ID loyihani amalga oshirish bo‘yicha xarid
qilinadigan tovar (xizmat)lar

REESTRI

T/r	Tovar (xizmat)lar nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
Loyihani amalga oshirish jami qiymati*				

* Manzilli ro‘yxatda nazarda tutilgan mablag‘dan ortib ketishi mumkin emas.

Quva tumanida tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish
hamda moliyalashtirish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga
6-ilova

Tuman bo‘yicha tashabbusli budjetlashtirish natijalari yuzasidan

MA’LUMOT

20___ -yil(oy)

T/r	Ko‘rsatkich nomi	Summa (ming so‘m)
1.	Yil (chorak) boshiga qoldiq	
	Shundan avvalgi mavsumlarda g‘olib bo ‘Igan loyihalar uchun ajratilishi loziin bo ‘Igan, qayta taqsimlanmagan mablag	
2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘	
3.	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo’naltirilgan	
3.1.	*Bajarilgan ishlar uchun hisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘*	
3.2.	*HisobvaraqIardagi qoldiq*	
4.	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasida qoldiq mablag‘	

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan taklif soni	Ko‘rsatkichlar		
			o‘lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag‘
	Jami		**X**	**X**	
1.	Hududiy ichki yo’llar		umumiy uzunligi		
2.	Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash		soni		
3.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ta’mirlash va jihozlash		soni		
4.	Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va jihozlash		soni		

5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta’mirlash va jihozlash		soni		
6.	Ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash		umumiy uzunligi		
7.	Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish tadbirlari		chiroqlar soni		
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish)		tadbir soni		
9.	Boshqa tadbirlar		soni		

Quva tumanida tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish
hamda moliyalashtirish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga
7-ilova

jamg‘armasi hisobidan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo’naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida MA’LUMOT

T/r	Loyihaning xos raqami (ID)	Loyihaning qisqacha mazmuni (sohasi)	Loyihaning moliyalashtirilishi (ming so‘m)					
			Moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraq	Tashabbuskor tomonidan kiritilgan loyihaning dastlabki qiymati	Loyihani amalga oshirishdagi aniqlangan qiymati*	Ajratilgan mablag‘	Bajarilgan ishlar uchun to‘lab berilgan mablag‘	Qoldiq mablag‘
Jami								
1.								
2.								
3.								

* - loyiha-smeta hujjatlari va ekspertiza xulosasiga asosan pudratchi korxonalar tomonidan taklif etilgan qiymat.